

KORPUS LINGVISTIKASI

Fe'l grammatik shakllarining uslubiy xoslanishiga ko'ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida

Dilrabo Elova¹

Abstrakt:

Jahon tilshunosligida jadal rivojlanayotgan kompyuter lingvistikasi yo'nalishida tabiiy tilga ishlov berish, so'rov berish va javob olish sifatini yaxshilash, lingvistik tadqiqot, lingvodidaktika, leksikografiya korpuslardan foydalanish dolzarb masalaga aylandi. Tilshunoslikda, xususan, kompyuter lingvistikasi sohasida korpus birliklarini tanlash, ularni lingvistik, jumladan, morfologik, semantik, sintaktik va stilistik teglash, stilistik teglar tizimini ishlab chiqish, til korpusi uchun maxsus axborotlarni qamrab olgan uslubiy xoslanishni farqlovchi lingvistik ta'minot yaratish muammosi dolzarb bo'lib qolmoqda.

Fe'l so'z turkumi grammatik kategoriyalarga boy so'z turkumi bo'lib, ana shu shakllar lug'aviy birliklar singari turli uslubiy ma'nolarni anglatadi. Birgina fe'lning o'zida ish-harakat jarayoni va uning tavsifi, harakatning tez yoki sekin bajarilishi, takrorlanishi, bajarilish-bajarilmasligi, harakat bajaruvchisining soni, bajarilish payti kabi qator semantik grammatik ottenkalar ifodalanadi.

Ushbu maqolada fe'lning lug'aviy va sintaktik shakl yasovchi qo'shimchalarini uslubiy xoslanishiga ko'ra annotatsiyalash tamoyillari, ularning teglar tizimi, o'zbek tili milliy korpusida uslubiy xoslanganlik belgisi bo'yicha avtomatik ishlov berishning ahamiyati va uslubiy xoslanganlik belgisi bo'yicha qidiruv parametrlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: *fe'l, lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi, fe'lning mayl shakllari, fe'l zamon shakllari, fe'lning vazifa shakllari, fe'l nisbat shakllari lingvistik annotatsiya, nutq uslublari, uslubiy teglashtirish.*

Kirish

Til korpuslarida adabiy til bilan birga noadabiy leksika ham o'rin oladi. Buning sababi shuki, zamonaviy korpus birliklari –

¹Elova Dilrabo Qudratilloevna - Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasida katta o'qituvchisi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

E-pochta: elova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2329-1811

Iqtibos uchun: Elova D. 2022. "Fe'l grammatik shakllarining uslubiy xoslanishiga ko'ra lingvistik annotatsiyalash masalasi xususida". *O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya.* 2 (5): 84-96.

korpus tarkibidagi matnlar internet manzillari orqali (ma'lum bir ishlovdan so'ng) avtomatik ravishda korpusga qabul qilinadi. Shu sababli milliy korpus tuzuvchilari korpusda turli uslub va nutq shakllariga oid matnlar proporsiyasi, ya'ni milliy tilning barcha qirralarini ko'rsatuvchi reprezentativlik masalasiga alohida e'tibor berishlari talab qilinadi.

Annotatsiya yoki razmetka tushunchalari va uning korpus tuzishdagi ahamiyati. Turli lingvistik muammolarni hal qilish uchun faqat matnlar majmuasiga ega bo'lish yetarli emas. Matnlarda turli qo'shimcha lingvistik va ekstralingvistik ma'lumotlar talab qilinadi. Shu ehtiyojdan kelib chiqib, korpus tilshunosligida annotatsiyalangan korpus tushunchasi paydo bo'ldi. Annotatsiyalash (teglash, izohlash, razmetkalash; inglizcha tagging, annotation) matn va uning tarkibiy qismlariga maxsus teg (razmetka, izohlar) birliktirishdan iborat.

Uning quyidagi ko'rinishlari mavjud:

1) tashqi, ekstralingvistik (muallif haqidagi ma'lumot, matn haqidagi ma'lumot: muallif, unvon, nashr etilgan yil va joy, janr, mavzu; muallif haqidagi ma'lumotlar nafaqat uning ismini, balki yoshi, jinsi, hayot yillari va boshqalarni ham o'z ichiga olishi mumkin. Ushbu ma'lumotni kodlash metateglash yoki metarazmetka deb ataladi);

2) tarkibiy (bob, paragraf, jumla, so'z shakli) va lingvistik tavsiflovchi, matn elementlarining grammatik va boshqa xususiyatlarini ko'rsatuvchi.

Asosiy qism

Lisoniy birliklarni uslubiy xosligiga ko'ra razmetkalash annotatsiyalashning lingvistik tavsiflovchi turiga mansub bo'lib, quyida fe'l grammatik shakllarini uslubiy xosligiga ko'ra teglash masalalari xususida fikr yuritimiz.

Mayl shakllarining uslubiy xoslanishini ifodalash xususida. Fe'l mayllari o'ziga xos shakllarga ega bo'lib, turli xil modal ma'nolarni ifodalaydi. Shunga qaramay, fe'l mayllarining biri o'rnida ikkinchisini qo'llash mumkin. Ana shu holat ulardagi keng uslubiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqaradi. Fe'lning ijro maylida modallik, ta'sirchanlik deyarli bo'lmaydi. Bunda faqat harakatning bajarilish-bajarilmasligi haqida xabar berish ma'nosi anglashiladi. Ammo bu mayl ba'zan buyruq yoki shart mayllari o'rnida kelib, ular anglatgan ma'nolarni ifodalashi mumkin: *uylarni yig'ishtirasan, oshxonani tozalaysan, so'ngra kinoga borasan (yig'ishtir, tozala, bor buyruq fe'llari o'rnida kelgan)* [Qilichev 1992, 61]. Bunday holatda mayl

shaklini bildiruvchi qo'shimchani uslubiy xoslanishini hozircha ko'rsatib bo'lmaydi. Chunki uslubiy xoslanganlik haqidagi ma'lumot bilan teglashtirishda faqat lisoniy birlikning shakliga asoslanamiz. Yuqorida ko'rsatilgan holatni ham teglash mumkin, ammo buning uchun korpusda semantik analizator ishlashi kerak: ya'ni morfologik shakl bilan aniqlanmaydigan birliklar semantik analizator funksiyasi ishga tushganda avtomatik tahlil qilinishi mumkin.

Fe'ning buyruq-istak mayli buyurish, so'rash, qistash, iltimos kabi ma'nolarni bildiradi. Bu ma'nolar ikkinchi va uchinchi shaxslarga qaratilgan bo'ladi. Ammo buyruq maylining birinchi shaxs ko'rinishi mavjud emas. Chunki so'zlovchi o'ziga o'zi buyurishining imkoni yo'q. Shunga qaramay, badiiy asarlarda personajlar nutqida ma'lum uslubiy talab bilan o'ziga o'zi undash uchraydi. Bunda so'zlovchi o'zini ikkinchi shaxs o'rniga qo'yib gapiradi. Buning o'ziga xos semantik-uslubiy xususiyatlari bor. Jumladan, buyruq bevosita so'zlovchining o'ziga tegishli bo'ladi: *Rajabboy, bu ishni qiling* ("men bu ishni qilay" ma'nosida, so'zlovchi birinchi shaxs). Bu tarzda qo'llanish **so'zlashuv** uslubiga xos bo'lib, o'zini ovsarlikka olish yoki g'ururlanish ma'nosida keladi [Qilichev 1992, 62]. Bu kabi holatlar haqida ham aynan yuqoridagi muammoni aytish mumkin.

E.Qilichevning ta'kidlashicha, fe'ning buyruq-istak mayl shakllari **badiiy uslubda, publitsistikada** keng qo'llanadi. Shart mayli fe'l o'zaklariga -sa affiksini qo'shish bilan hosil qilinadi. -sa shaklli fe'llarda modallik, hissiy-ta'sirchanlik ma'nolari kuchli seziladi. -sa shakli orqali nafaqat shart ma'nosi, balki orzu, xohish, iltimos, sabab ma'nolari ham ifodalanadi: *ishlasa, borsam, borib kelsang. Menga so'z bersangiz edi* kabi [Qilichev 1992, 62].

Ko'rinyaptiki, fe'ning mayl shakllari ichida **so'zlashuv, badiiy, publitsistik uslubga** xoslanish ilmiy jihatdan asoslangan, ammo bunday xoslanish fe'ning ma'lum bir uslubida maxsus morfologik shakl bilan farqlanmaydi, ya'ni bir morfologik shakl ma'lum kontekstda uslubiy xoslanishni ifodalasa, boshqa kontekstda uslubiy betaraf bo'ladi. Bunday holatlarni avtomatik tahlil qilishning hozircha imkoni yo'q. O'zbek kompyuter lingvistikasining keyingi bosqichlarida ushbu tahlilni amalga oshiruvchi analizatorlar yaratilsa, kontekstga qarab uslubiy xoslanishni aniqlash imkoni paydo bo'ladi.

Fe'l zamon shakllarining uslubiy xususiyatini avtomatik aniqlash. Fe'ning zamon kategoriyasi – obyektiv voqelikning tilda aks etishining bir ko'rinishi. Tilda zamon tushunchasi fe'ning zamon shakli orqali ifodalanadi. Fe'l zamonlarining har biri o'z shakliga

ega. Bu shakllar o'zaro ichki sinonimiya hosil qilishi mumkin yoki bir zamonga xos shakl o'zi anglatishi kerak bo'lgan ma'noni emas, balki boshqa zamon ma'nosini bildirishi ham mumkin. Ya'ni shakl ma'nosida ko'chish yuz beradi. Bularning hammasi ma'lum bir uslubiy effektini yuzaga chiqaradi [Qilichev 1992, 62].

O'tgan zamon fe'li. Bu zamon ma'nosi *-di, -gan, -gan edi, -(i) b edi, -(a)r edi* shakllari vositasida yuzaga chiqadi. Bu shakllar nutqda harakatning o'tgan zamonda amalga oshganligini ifodalash ma'nosida o'zaro sinonim bo'lib kelsa-da, yana har biri o'ziga xos modal ottenkalariga ega. Jumladan, *-di* shaklli fe'llarda harakatning o'tgan zamonda aniq bajarilganligi ifodalansa, *-(i)b edi* shaklli fe'llarda o'tgan zamonda bajarilgan harakat hikoya qilish, eslash orqali bayon qilinadi. O'tgan zamon shakllari nutq uslublariga munosabati jihatidan ham farqlanadi. Masalan, *-(i)b edi, -guvchi edi* shakllari **so'zlashuv** nutqiga, *-moqda edi* shakli esa **rasmiy uslubga** xos. Nutqni jonli qilish, u yoki bu harakatni tinglovchining ko'z o'ngida yoki yaqin vaqt ichida aniq bajarilganligini ifodalash uchun *-di* shaklli o'tgan zamon fe'li kelasi zamon ma'nosi uchun ishlatiladi: *Qani ketdik. Ertaga boy meni qoziga chaqirtiradi, yorimni tortib oladi, endi men nima qilaman? (Ertakdan).* Yuqoridagi ma'lumotlardan kelib chiqib, **so'zlashuv va rasmiy uslubga** xosligi ko'rsatilgan shakllarga shunday axborotni beruvchi teglar biriktiramiz.

Zamon	z	Zamon shakllari	
		Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
O'tgan zamon	z1	-di, -gan/kan/qan, -gan edi/kan edi/qan edi, -gan ekan/-kan ekan/-qan ekan, -gan emish /-kan emish/-qan emish, -b edi/-ib edi, -uvdi/-ovdi, -b(shaxs-son) ekan/-ib(shaxs-son) ekan, -r edi/+ar edi, -rdi/+ardi, -yotgan edi/-ayotgan edi, -yotgandi/-ayotgandi, -yotib edi/+ayotib edi, -guvchi edi, -ydigan edi/-adigan edi, -moqda edi, -moqchi edi, -b/+ib	- gandi/-kandi/-qandi (so'zl.) -ganakan/ -kanakan/-qanakan (so'zl.) -ganmish/ -kanmish/-qanmish (so'zl.)

Hozirgi zamon fe'li. Bu zamon ma'nosi *-yap, -yotir, -moqda* shakllari vositasida yuzaga chiqadi. Bu formalar o'zaro sinonimlik hosil qiladi: *boryapman / borayotirman / bormoqdaman; ishlayapman / ishlayotirman / ishlamoqdaman* kabi. Hozirgi zamon ma'nosini

yot, tur, o'tir, yur fe'llari yordamida analitik yo'l bilan ham hosil qilish mumkin. Hozirgi zamon fe'li shakllaridan *-yap* nutqiy betaraf bo'lib, faol qo'llanadi; *-yotir* shakli she'riy nutqda ko'proq uchraydi; *-moqda* shakli kitobiy uslubga xos bo'lib, obrazli ifodalarda, tantanali publitsistik nutqlarda ko'p ishlatiladi. Shuningdek, manbalarda hozirgi zamon shakllari ma'lum uslubga xoslangani bilan o'zaro farqlanishi ko'rsatiladi: *-yapti* uslubiy betaraf (neytral) shakl bo'lsa, *-moqda, -yotir* yozma nutq uslubiga xos [Nurmonov, Sobirov, Yusupova 2012, 161].

Hozirgi zamon shakllari boshqa zamon ma'nosida ham ishlatilishi mumkin. Jumladan, hozirgi zamon shakllari o'tgan zamon ma'nosida qo'llanganda, badiiylik oshiriladi, ta'sirchanlik kuchaytiriladi. So'zlovchi harakatning bevosita kuzatuvchisi sifatida o'tgan zamon voqealarini hozirgi zamon holat fe'llari orqali tasvirlaydi. Bo'lib o'tgan voqealarni o'quvchi ko'zi oldida yangidan gavdalantiradi: *Birpasdan keyin Farmonqul, uning ketidan xotini qizini yetaklab kirdi. U mehmondan qochmadi. Hammamiz o'tirmoqdamiz, qani endi birontamizdan sado chiqsa.* (A.Q.) E.Qilichevning ko'rsatishicha, agar o'tirmoqdamiz fe'li kontekstdagi boshqa o'tgan zamon fe'llari bilan bir xil shaklda berilsa, ma'noda o'zgarish bo'lmaydi. Lekin matndagi tasviriylik yo'qolib, voqea oddiy xabarga aylanib qoladi. Hozirgi zamon fe'l shakllari kelasi zamon o'rnida ham qo'llanadi. Bunda ma'no ta'sirchanligi bo'rttiriladi: *Ertaga dam olishga ketyapmap.* Fe'l zamon shakllarining bu kabi uslubiy o'ttenka hosil qilish imkoniyatlari shaklga emas, ma'noga xoslangani sababli ularni avtomatik tahlilga tortib bo'lmaydi. Ko'rsatilgan qo'shimchalarning uslubiy xoslanishi nazariy asosga ega. Zamon shakllarining uslubiy xoslanishi shakliy jihatdan farqlangan holatlarning bazada aks ettirilishini quyida ko'rsatamiz.

Zamon	z	Zamon shakllari	
		Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
Hozirgi zamon	z2	-yotibdi ekan/+ayotibdi ekan, -yotib (shaxs-son) ekan/+ayotib (shaxs-son) ekan, -yotgan ekan/+ayotgan ekan, -yotgan emish/+ayotgan emish, -yotgan emish/+ayotganmish,-yap, -yapti ekan, -yapti emish, -yap+(shaxs-son)+ekan (shaxs-son), -yap+(shaxs-son)+emish, -yap+(shaxs-son)+mish, -yap+(shaxs-son)+emish (shaxs-son), -yap+(shaxs-son)+mish (shaxs-son) -yotib/+ayotib	-yaptikan (so'zl.) -yaptimish (so'zl.) -yap+(shaxs-son)+ekan -yotir/+ayotir (yozma nutq) -yotir ekan/+ayotir ekan (yozma nutq) -moqda (yozma nutq) -moqda emish (so'zl.) -moqdamish (so'zl.) -moqda ekan (so'zl.) -ydigan emish/+adigan emish (so'zl.) -ydiganmish/+adiganmish (so'zl.)

Kelasi zamon fe'li. Kelasi zamon shakllari nutq so'zlanayotgan paytdan keyin bajariladigan harakatni bildiradi. Bu zamon *-ajak(-yajak), -moqchi, -digan* affikslari yordamida yasaladi. Kelasi zamon yasovchi bunday affikslar o'zaro sinonimlik munosabatni tashkil qiladi; *borajakman – bormoqchiman – boradiganman; yozajaksan – yozmoqchisan – yozadigansan.* Kelasi zamon shakllari ham o'rni bilan boshqa zamon ma'nolarini ifodalash uchun ishlatiladi. Kelasi zamon shakllarining uslubiy xoslanishi fe'lning *-a* ravishdosh shakliga *-di, -jak*; fe'l asoslariga *-ar, -ur, -gusi* qo'shimchalarini qo'shish orqali hosil bo'ladi. Masalan, *keladi, kelajak, kelar (ur), kelgusi* kabi. Bulardan *-adi, -ar* uslubiy betaraf shakllar bo'lsa, *-jak, -gay, -ur, -gusi* shakllari badiiy va publitsistik uslubga xos. Uslubiy betaraflik belgisiga ko'ra *-adi* va *-ar* shakllari bir guruhni tashkil qilsa ham, ular ifodalanayotgan harakatga gumon-taxmin ma'nosini bildirish-bildirmasligiga ko'ra bir-biridan farq qiladi. Birinchisi bunday ma'noga betaraf bo'lsa, ikkinchi shakl gumon-taxmin ma'nosiga ega.

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda fe'l zamon shakllarining uslubiy xoslanishi MBda quyidagicha aks ettiramiz:

Zamon	z	Zamon shakllari	
		Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
Kelasi zamon	z3	-y/+a, -ydi ekan/-adi ekan, -ydi emish/-adi emish, -r/-ar, -r emish/-ar emish, //-rmish/ armish, -r ekan/-ar ekan, -moqchi, -moqchi emish, -moqchi ekan, -ydigan/-adigan, -ydigan ekan/-adigan ekan, -y/-ay dedi	-yajak/+ajak (badiiy / publitsistik) -gay/+kay/+qay (badiiy / publitsistik) -gu/+ku/+qu(shaxs-son) dir (badiiy) -rkan/+arkan (badiiy / publitsistik) -moqchimish (so'zl.) -ur (badiiy / publitsistik) -gusi (badiiy / publitsistik)

Fe'l nisbat shakllarining uslubiy xoslanishini ko'rsatuvchi teglar. Hozirgi o'zbek tilida fe'lning besh xil daraja shakli mavjud bo'lib, ular barcha nutq uslublarida uchraydi. Ayrim daraja shakllari ma'lum bir nutq uslubiga xoslangan ham bo'ladi.

Orttirma daraja shakllari semantik-grammatik planda bitta vazifani bajarsa ham, nutqda ishlatilishi jihatidan farqlanadi. *-t* affiksi *-giz (-g'iz, -qiz)* shakllari bilan sinonimlik hosil qiladi: *kirit – kirgiz, yurit – yurgiz, to'lat – to'lg'az* kabi. Xuddi shuningdek, turli shakldagi orttirma daraja yasovchi quyidagi affikslar ham o'zaro

o'rin almashtira oladi: *-giz, -dir (kiygiz, kiydir), -iz, -dir, (emiz, emdir), -t, -tir, -g'iz (to'lat, to'ldir, to'lg'az)* va h.k. Bir leksemaga orttirma daraja yasovchi bir morfemaning turli fonetik variantlari qo'shilishi mumkin: *ko'rgaz – ko'rgaz, ko'rg'az, turgiz – turg'iz – turg'az* kabi. Bunday fonetik variantlar qisman **dialektal** (sheva) xususiyatlari bilan bog'liq bo'lib, emotsional-ta'sirchanlikni kuchaytirish, personajni nutqiy tavsiflash kabi uslubiy vazifalarni bajaradi. Ko'rinib turibdiki, fe'l nisbat shakllari uslubiy vazifa bajarsa-da, shakliy jihatdan uslubiy xoslanganligini ajratib bo'lmaydi. Bunday holatda avtomatik ishlov berish hozircha imkonsiz.

Fe'lning orttirma darajasini hosil qiluvchi shakllar faol-nofaolligiga ko'ra ham farqlanadi. *-tir (-dir), -gaz (-qaz, -kaz, -giz, -g'iz, -qiz)* affikslari *sinonimiyasida -giz (-kiz, -qiz)* forma yasovchilar faol emas. *-gaz, -g'az, -g'iz* affikslari esa ko'proq dialektal yoki individual nutqqa xos. *-kaz, -qaz* fonetik variantlari ba'zan ma'no farqlash uchun ham ishlatiladi. Chog'ishtiring: *o'tkaz* – biror voqeani boshdan kechirmoq; *o'tqaz* – ko'chat o'tqazish (qurish) ma'nosida. Bu leksik ma'noni farqlamaslik uslubiy nuqsonga olib keladi [Qilichev 1992, 56].

Ba'zan bir nisbat ma'nosi o'rnida boshqa nisbat shakllaridan foydalaniladi. Xususan, bosh nisbat ma'nosida birgalik nisbat shakllari ishlatilishi mumkin. Masalan, *keldi – kelishdi, kelyapti – kelishyapti*. Shuningdek, bosh nisbat ma'nosida majhul nisbat shakllaridan foydalaniladi: *qildim o'rniga qilindi, bajardim o'rniga bajarildi, kiring o'rniga kirilsin* kabi. Bunday holat ma'lum uslubiy emotsional ma'no talabi bilan ro'y beradi. Ko'pincha keyingi holat hurmat, kamtarlik ma'nolarini ifodalaydi. Ko'rib o'tilganidek, fe'l nisbat shakllari shakl jihatdan uslubiy betaraf. Boshqa uslubiy ma'nolar esa faqat kontekstda anglashiladi. Shu sababli nisbat ko'rsatkichlarini ma'lumotlar bazasida quyidagicha aks ettiramiz:

I.2	Nisbat	n	Uslubiy betaraf
A	Aniq	n1	+∅
B	O'zlik	n2	1) +n/+in, 2) +l/+il
C	Majhul	n3	1) +n/+in, 2) +l/+il
D	Orttirma	n4	1) +ar 2) +ir, 3) +giz/+kiz/+qiz/+g'iz/+gaz/+kaz/+qaz, 4) +iz, 5) +dir/+tir, 6) +t/+it
E	Birgalik	n5	+sh/+ish

Fe'lning funksional shakllarining uslubiy xususiyatini avtomatik aniqlash imkoniyati. Fe'lning funksional shakllari asosiy

xususiyatlariga ko'ra ikki turga bo'linadi:

- 1) fe'ning ma'lum bir vazifa uchun xoslangan shakllari;
- 2) harakatning turli tavsifini ko'rsatuvchi va modal ma'no ifodalovchi shakllar.

Fe'ning ma'lum bir vazifa uchun xoslangan shakllariga *harakat nomi, sifatdosh va ravishdosh* kiradi.

Harakat nomi. Fe'ning bu shakli *-(i) sh, -(u)v, -moq, -maslik, -ganlik* affikslari yordamida yasaladi. Bu shakllar ma'no jihatidan bir-biriga yaqin turadi. Ammo ular nutq uslublarida qo'llanishi, faol-nofaolligiga ko'ra o'zaro farqlanadi. Jumladan, *-(i)sh* affiksi bilan harakat nomi yasalishi faol bo'lsa, *-(u)v* shakli bilan harakat nomi yasalishi nofaol. *Toshkentga o'qishga keldim* deyish mumkin. Ammo *Toshkentga o'quvga keldim* deb bo'lmaydi. Chunki *-(u)v* affiksi bilan yasaluvchi shakl ko'proq ot ma'nosida qo'llanadi. *-moq* affiksi bilan harakat nomi yasash ham nisbatan chegaralangandir. Uning *-mak* varianti she'riy nutqqa xos. Klassik adabiyotda *-mak* shakli faol qo'llangan. Jonli so'zlashuv nutqida harakat nomi gapda ega vazifasida ko'proq qo'llanadi. Egasi harakat nomi bilan ifodalangan gaplar ta'sirchanlik xususiyatga ega bo'ladi. Chog'ishtiring: *chekish zararli. Yugurish foydali. Ayb emasdir sevmog, sevilmog (U.)*.

Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda harakat nomiga oid axborotni quyidagicha annotatsiyalaymiz:

	Fe'ning vazifa shakli	V	Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan	Uslub turi
a	harakat nomi shakli	V1	+sh/+ish +маслик +v/+uv	+moq +moqlik -мак +shlik/+ishlik	kitobiy uslub badiiy uslub badiiy uslub yuqori uslub

Sifatdosh. Fe'ning bu shakli *-gan (-kan, -qan), -ar, -r, -gusi (-g'usi, -qusi), -jak, -mish* affikslari yordamida yasaladi. *-gusi (-g'usi), -jak* affikslari kammahsul, *-mish* shakli esa arxaiklashgan. Bu shakllar she'riy nutqda ishlatiladi. *-gan, -ar* sifatdosh shakllari aniq zamonni ifodalamaganda harakat nomi shakllari *-ish, -moq* bilan sinonim bo'lib kela oladi: *toza havoda dam olganga nima yetsin* (olishga). *Keldi ochilur chog'ing, o'zliging namoyon qil* (H. H.) (ochilish). *Adashgan ayb emas. - Adashish ayb emas* kabi. *-gan* shakli aniq zamon ifodalab, aniqlovchi bo'lib kelganda hamda *-gan* shakli so'z otlashganda *-ish* shakli so'zlar bilan o'rin almashtira olmaydi: *O'qiyotgan bola keldi: Qo'rqqanga qo'sh ko'rinar* (maqol.) kabi. Ushbu ma'lumotlardan kelib chiqqan holda MBda sifatdosh yasovchi

shakllarni quyidagicha teglash mumkin:

I.3	Fe'ning vazifa shakli	V	Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
b	sifatdosh shakli	V2	+gan/+kan/+qan, +ganlik/+kanlik/+qanlik, +ganda edi/+kanda edi/+qanda edi, +gandaydi/ +kandaydi/+qandaydi, +gan/+kan/+qan (egalik) bo'lsin, +gan/+kan/+qan bo'ldi, +yotgan/+ayotgan, +ydigan/+adigan, +ydigan edi/+adigan edi	-r/+ar, +guvchi/+uvchi/+vchi, +gulik/+g'lik/+rlik, +gur/+kur/+qur/+g'ur

Ravishdosh. Fe'ning bu shakli *-(i)b, -a, -y, -gali, -guncha (-kuncha, -quncha), -gach, -gani (-kani, -qani)* affikslari yordamida hosil qilinadi. *-(i)b* va *-a, -y* ravishdosh yasovchilari ma'no jihatdan bir-biridan ancha farqlansa ham, ayrim o'rinlarda sinonim bo'lib keladi: *o'qib biladi – o'qiy biladi; yozib oladi – yoza oladi* kabi. Ravishdoshning *-may* shakli she'riyatda *-mayin* shaklida ham uchraydi. *Bilmayin bosdim tikanni, tortadurman dardini.*

-gani, -gali shakllari hozirgi nutqda ko'p ishlatilmaydi, ko'proq she'riy nutqqa xosdir:

Shiypon oldi gul hovuz,

Gul tergani kelganmiz.

Gulni bahona qilib,

Yor ko'rgani kelganmiz. (Xalq og'zaki ijodi)

Nozu istig'no bilan ko'rsatur ming g'amza jon qilgali shaydo meni (U.)

Harakatning bajarilish holatini ifodalashda *-gan -cha, -guncha shakllari -gan, -g'an* holda konstruksiyalari bilan ham sinonimik qator hosil qiladi: *Anvar eshik kesagasigidan ushlagan cha goh Alimardonga, goh Muqaddamga qarab turar edi.* (U.H.) (Ushlagan holda,) Ko'rinadiki, ravishdosh yasovchi shakllarda uslubiy imkoniyat katta. Ulardan maqsadga muvofiq foydalanish nutqni ko'rkamlashtiradi. Ravishdosh shakllari uslubiy xoslanishini MBda quyidagicha belgilash mumkin:

I.3	Fe'ning vazifa shakli	V	Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
c	ravishdosh shakli	V3	1) +b/+ib, 2) +gan cha/+kan cha/+qan cha, 3) +gudek/+kudek/+qudek, 4) +gach/+kach/+qach, 5) +guncha/+kuncha/+quncha	+gani/+kani/+qani/ +gali +gali

Harakatning turli tavsifini ko'rsatuvchi va modal ma'no ifodalovchi shakllar. Bu shakllar ko'rinishiga ko'ra ikkiga bo'linadi:

- 1) sintetik shakllar,
- 2) analitik shakllar.

Sintetik shakllar harakatning davomiyligi, takroriyiligini ifodalaydi. Bu *-a, -la, -kila (-gila, -qila, -g'ila)* shakllari orqali yuzaga chiqadi: *bur-bura, sava-savala, turt-turtkila, cho'z-cho'zg'ila, tep-tepkila, qashi - qashila* kabi. Harakatning kuchsiz darajasi esa *-(i) nqira, -(i)msira* shakllari vositasida yuzaga keladi: *qo'rqinqira, kulimsira, yig'lamsira* kabi. Ushbu shakllar, asosan, badiiy uslubda ishlatilib, personajlarning ruhiy holati, ichki kechinmalarini yaqqol gavdalantrish uchun xizmat qiladi: *Uning yanog'i pir-pir uchar, qovog'i shishinqiraganday ko'rinar edi* (A.Q.). *Zohid ishqin desaki, qilgay fosh, yig'lamsiraru ko'ziga kelmas yosh* (N.). Anglashiladiki, harakatning turli tavsifini ko'rsatuvchi va modal ma'no ifodalovchi sintetik shakllar badiiy uslubga xos. Shu sababli MBda ushbu shakllarning barchasiga uning uslubiy xoslanganligi, badiiy uslubga tegishlilik haqida ma'lumot birlashtiriladi:

	<i>Harakatning modal ma'nosini ifodalovchi shakllar</i>	Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
	Sintetik shakl		<i>-a, -la, -kila (-gila, -qila, -g'ila)</i>

Analitik yo'l bilan modal ma'no ko'makchi fe'llar va to'liqsiz fe'l yordamida hosil qilinadi. Har bir ko'makchi fe'l yetakchi fe'l bilan birikib modal ma'nolar ifodalaydi. Masalan, ishning endi boshlanganligi (kuylay boshladi), davomlilik (ishlab yuribdi), tugallanganligi (o'qib chiqdi) kabi ma'nolar boshla, yur, chiq ko'makchi fe'llari orqali ifodalangan. Modal ma'no ifodalash jihatidan ham ayrim ko'makchi fe'llar sinonimlik tashkil qiladi. Masalan, biror harakatni bajara olish imkoniyati *bil, ol* yordamchi fe'llarida teng ifodalanadi. Chog'ishtiring: *o'qiy biladi – o'qiy oladi, kela biladi – kela oladi* kabi. Shunga qaramay, ayrim ko'makchi fe'llar ba'zi fe'llar bilan birika olmaydi. Masalan, yoz ko'makchi fe'li quvonmoq, tekshirmoq, o'smoq qabi fe'llar bilan birika olmaydi. Og'zaki va yozma nutqda bunga e'tibor qilmaslik natijasida uslubiy xatolarga yo'l qo'yiladi.

Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmalari uslubiy vazifa bajarsada, ularning shakli uslubiy ma'nosini hozircha avtomatik aniqlash imkonini bermaydi.

Edi, ekan, emish, erur to'liqsiz fe'llarda aslida e o'zagidan hosil bo'lgan. To'liqsiz fe'l ot, sifat, son, olmosh kabi so'z turkumlari bilan

birikib, ularga fe'llik tusini beradi. Fe'llar bilan birikib kelganda esa harakatning aniq bajarilganligi, harakatning bajarilish ehtimoli borligi, payti, maqsadi kabi modal ma'nolarni ifodalab keladi. Erur to'liqsiz fe'li tarixiy-badiiy asarlarda davr ruhini berish uchun ishlatiladi. To'liqsiz fe'ning ekan, *-kan* shakllari so'zlashuv nutqi uslubida ko'proq qo'llanadi. Yuqoridagi ma'lumotlar asosida to'liqsiz fe'llarni quyidagicha teglash mumkin:

	To'liqsiz fe'llar	Uslubiy betaraf	Uslubiy xoslangan
		edi, emish	ekan, -kan (so'zl.) erur (tar.)

Xulosa

Xulosa sifatida aytish mumkinki, til korpuslari jahon amaliyotida keng qo'llanilmoqda va an'anaviy ta'lim texnologiyalariga samarali innovatsion qo'shimchalar sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbek tili milliy korpusi bazasidagi lisoniy birliklarni uslubiy belgilariga ko'ra annotatsiyalash kelgusida uslubiy analizatorni yaratishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

- Дубовик А.Р. 2017. Автоматическое определение стилистической принадлежности текстов по их статистическим параметрам // Компьютерная лингвистика и вычислительные онтологии. Выпуск 1.
- Захаров В.П., Богданова С.Ю. 2011. Корпусная лингвистика. Иркутск: ИГЛУ.
- Муҳаммедова С. 2006. Ҳаракат феъллари асосида компьютер дастурлари учун лингвистик таъмин яратиш. Методик қўлланма. Тошкент, 166 б.
- Национальный корпус русского языка // Вопросы языкознания. 2006. Москва: Наука.
- Недошивина Е.В. 2006. Программы для работы с корпусами текстов: обзор основных корпусных менеджеров. Учебно-методическое пособие. Санкт-Петербург.
- Қўнғуров Р. 1990. Нутқ маданияти ва услубият асослари. Тошкент.
- Гулямова Ш. 2022. Ўзбек тили семантик анализаторининг лингвистик асослари: Филология фан. д-ри. дисс. автореф. Фарғона.
- Хамроева Ш. 2021. Ўзбек тили морфологик анализаторининг лингвистик таъминоти: филол. фан докт. диссертацияси автореф. Фарғона, – 83 б.
- Синклер Д. Предисловие к книге “Как использовать корпуса в преподавании иностранного языка”/ Д. Синклер [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <http://www/ruscorpora.ru/corpora-info.html>, свободный.

- Қиличев Э. 1992. Ўзбек тилининг амалий стилистикаси (грамматика).
Ўқув қўлланма. Тошкент: Ўқитувчи.
- Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. 2012. Hozirgi o'zbek adabiy tili.
Toshkent: Ilm-ziyo.
- Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova M.,
Abuzalova M. 2009. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan
va texnologiyalar.

Style of grammatical forms of the verb in particular on the problem of linguistic annotation according to customization

Dilrabo Elova¹

Abstract:

In the field of computer linguistics, which is rapidly developing in world linguistics, improving the quality of natural language processing, asking and receiving answers, using corpora in linguistic research, linguodidactics, and lexicography has become an urgent issue. In linguistics, in particular, in the field of computer linguistics, the problem of selecting corpus units, their linguistic, including morphological, semantic, syntactic and stylistic tagging, developing a system of stylistic tags, and creating linguistic support for distinguishing stylistic features that includes special information for the language corpus remains relevant.

The verb word group is a word group rich in grammatical categories, and these forms, like lexical units, mean different stylistic meanings. A single verb expresses a number of semantic and grammatical aspects such as the process of action and its description, whether the action is fast or slow, whether it is repeated, whether it is performed or not, the number of people who perform the action, and when it is performed.

This article discusses the principles of annotating lexical and syntactic form-forming adverbs of the verb according to their stylistic features, their system of tags, the importance of automatic processing according to stylistic features in the national corpus of the Uzbek language, and search parameters for stylistic features.

¹Elova Dilrabo Qudratilloevna - Alisher Navoi Tashkent State University of Uzbek Language and Literature, Senior Lecturer, Department of Applied Philology, Doctor of Philology (PhD)

E-mail: elova@navoiy-uni.uz

ORCID: 0000-0002-2329-1811

For reference: Elova D. 2022. "Style of grammatical forms of the verb in particular on the problem of linguistic annotation according to customization". *Uzbekistan: language and Culture. Applied philology*. 2 (5): 84-96.

Key words: *verb, lexical form maker, syntactic form maker, inflectional forms of the verb, tense forms of the verb, task forms of the verb, relative forms of the verb, linguistic annotation, speech styles, stylistic tagging.*

References:

- Dubovik A.R. 2017. Avtomaticheskoe opredelenie stilisticheskoy prinadlejnosti tekstov po ix statisticheskim parametram // Kompyuternaya lingvistika i vichislitelnie ontologii. Vipusk 1.
- Zaxarov V.P., Bogdanova S.Yu. 2011. Korpusnaya lingvistika. – Irkutsk: IGLU.
- Muhammedova S. 2006. Harakat fe'llari asosida kompyuter dasturlari uchun lingvistik ta'min yaratish. Metodik qo'llanma. – Toshkent, p 166.
- Natsionalniy korpus russkogo yazyka // Voprosi yazykoznanija. 2006. Moskva: Nauka.
- Nyedoshivina V. 2006. Programmy dlya raboti s korpusami tekstov: obzor osnovnix korpusnyx menedjerov. Uchebno-metodicheskoe posobie. Sankt-Peterburg.
- Qo'ng'urov R. 1990. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. Toshkent.
- Gulyamova Sh. 2022. O'zbek tili semantik analizatorining lingvistik asoslari: Filologiya fan. d-ri. diss. avtoref. Farg'ona.
- Hamroyeva Sh. 2021. O'zbek tili morfologik analizatorining lingvistik ta'minoti: filol. fan dokt. dissertatsiyasi avtoref. Farg'ona, – p 83.
- Sinkler D. Predisloviye k knige "Kak ispolzovat korpusa v prepodavanii inostrannogo yazyka"/ D. Sinkler [Elektronnyy resurs]. – Rejim dostupa: <http://www.ruscorpora.ru/corpora-info.html>, svobodniy.
- Qilichev E. 1992. O'zbek tilining amaliy stilistikasi (grammatika). O'quv qo'llanma. Toshkent: O'qituvchi.
- Nurmonov A., Sobirov A., Yusupova Sh. 2012. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Ilm-ziyo.
- Sayfullayeva R., Mengliyev B., Boqiyeva G., Qurbonova M., Yunusova M., Abuzalova M. 2009. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Toshkent: Fan va texnologiyalar.